

“NAVOIY” ROMANIDAGI MILLIYLIKNING EVFEMIZM VA DISFEMIZMLAR VOSITASIDA IFODALANISHI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.7394919>

Rasulova Kamola Patxilayevna

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik
tarjimashunoslik mutaxassisligi 2-kurs magistranti, Toshkent sh. O‘zbekiston.

Tel: +998 93 386 63 05; E-mail: rasulovakamola0120@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada atoqli o‘zbek adibi Oybekning “Navoiy” romanidagi milliylikning evfemizm va disfemizmlar vositasida ifodalanishi masalasi romanning iste’dodli turk tarjimonlari Ahsan Botur va Shuayip Qoraqosh tomonidan amalga oshirilgan tarjimalar misolida ko‘rib chiqiladi.

***Tayanch so‘zlar:** roman, badiiy tarjima, frazeologizm, maqol, obrazli ko‘chma ma’no.*

ABSTRACT

The present article discusses the representation of nationality through euphemisms and dysphemism in the novel "Navoi" written by Oybek in Turkish translations made by talented translators Ahsan Botur and Shuayip Karakash.

***Key words:** story, literary translation, phraseological unit, proverb, metaphorical meaning.*

“Milliylik” va “milliy o‘ziga xoslik” atamallari o‘zaro ma’nodosh tushunchalardir. Asarning umumiy xususiyatlari xalqning xususiy va ijtimoiy hayot tarzi, turmush sharoiti, kiyimi, urf odatlari, shahar, muassasalarning nomlarida ko‘rinadi. Bularning yig‘indisi asarning milliy xususiyatini tashkil etadi¹.

Evfemizm (yun. euphemismos — yumshoq ifodalash) – so‘zlovchiga aytish noqulay, noo‘rin yoki qo‘pol tuyulgan so‘z va iboralarning sinonimi sifatida paydo bo‘lgan so‘zlar. Evfemizm salbiy voqelikni atashdan qochish, shunday voqelikning salbiy ta’sirini yumshatish uchun xizmat qilib, kishining izzatnafsiga tegadigan, unga malol keladigan, hurmatsizlik ifodalaydigan, axloqiy me’yorlarga zid keladigan

¹ Хамидов Х. Ўзбек қисса ва романлари турк тилида. Монография. – Тошкент: EFFECT-D нашриёти, 2022. – Б. 27.

holatlarning yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri aytish mumkin bo‘lmagan maxfiy voqeliklarning salbiy ta‘sirini kamaytirish, ularni yashirish, berkitish; noxush xabarni beozorroq, yumshoqroq shaklda etkazish, ifodalash uchun ishlatiladi. Masalan, “o‘ldi” deyish o‘rniga “olamdan o‘tdi”, “ko‘z yumdi”, “vafot etdi”; tug‘di deyish o‘rniga “ko‘zi yoridi”, “yengillashdi” kabi iboralardan foydalanish. Tilda evfemizmning qo‘llanishi tabu hodisasi bilan bog‘liq holda tarixiy etnografik hodisa sifatida shakllangan.

Evfemizmning aksi hisoblangan disfemizm hodisasi ham qadimdan mavjud bo‘lgan bo‘lsa-da, evfemizmdan farqli o‘laroq, fanda kam o‘rganilgan mavzu hisoblanadi. Buning sababini esa madaniy muloqot me‘yorlaridan izlash lozim. Chunki ular badiiy adabiyotda, madaniy muloqot muhitida odob nuqtai nazaridan berilishi mumkin bo‘lmagan birlik sifatida qaralgan. Odatda, tilshunoslikka oid lug‘atlarda disfemizm xususida alohida to‘xtalinmay unga evfemizm bo‘limida yo‘l-yo‘lakay izoh berilib ketiladi. Bunga misol sifatida V.N.Yartseva taxriri ostida chop etilgan “Лингвистический энциклопедический словарь”ni olish mumkin. Unda evfemizm xususida so‘z ketganda yo‘l-yo‘lakay “uslubiy va emotsional betaraf so‘zni nisbatan qo‘pol, noqulay so‘z bilan almashtirish” deya ta‘riflanadi.

Ushbu maqolada atoqli o‘zbek adibi Oybekning “Navoiy” romanida uchraydigan evfemizm va disfemizm hodisalari va unga turk tarjimonlarining yondashuvlari ko‘rib chiqilib, tarjima sirasida erishilgan yutuq va kamchiliklarga nisbatan fikr bildiriladi.

Professor A. Hojiyev evfemizm hodisasini shunday izohlaydi: “Evfemizm – narsa-hodisaning ancha yumshoq shakldagi ifodasi; qo‘pol beadab so‘z, ibora va tabu o‘rnida qo‘pol botmaydigan so‘z (ibora)ni qo‘llash”². Evfemizm ifodaga ijobiy yondashuvni yuzaga keltirish maqsadi bilan amalga oshiriladi³.

Evfemizmlar madaniy hodisa sifatida madaniyat taraqqiyotida o‘ziga xos o‘rin tutadi. Turli xalqlar evfemizmlaridagi madaniy o‘xshashliklar ularga yuklangan vazifalarning bir xilligidan kelib chiqadi. Evfemizmlarni vazifalariga ko‘ra: tabu-taqiq ifodalovchi evfemizmlar va xushmuomalalik ifodalovchi evfemizmlarga ajratish mumkin⁴.

Fikrimizni “Navoiy” romanidan olingan misollarga qaratsak:

² Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. –To‘shkent: ЎзМЭ, 2002. –Б. 131.

³ Вандриес Ж. Язык. –М.: Гос. соц.-экон. изд-во, 1937. –С. 206; Булаховский Л.А. Введение в языковедение. – М.: УЧПЕДГИЗ, 1954. –С. 49; Арнольд И.В. Лексикология современного английского языка. –М.: Флинта, 2012. –С. 284; Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. –М.: Советская энциклопедия, 1966. –С. 521.

⁴ Usmonova Sh. Tarjimaning lingvomadaniy aspektlari. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: 2015. – В. 43.

Asliyat: *Lekin, keyinchalik, Temur davlati parchalanib, shahzodalar orasida toj-taxt uchun urush, janjallar qizib ketgach, bu oilaning ovozasida asta so'na boshlagan: dadasi Feruzbek qaysi bir safarda dom-daraksiz g'oyib bo'ldi.*

Ahsan Botur tarjimasini: *Ama sonralari Timur davlati parchalanib, shahzodalar orasida taht kavgalari boshlayinca bu oilaning de yavaş yavaş yıldızı sönmeye yüz tutmuş. Babası Firuzbey bilmem hangi savaşta sessizce terk-i dünya eylemiş.*

Shuayip Qoraqosh tarjimasini: *Fakat daha sonralari Timur davlati parchalanib, shahzodalar orasida taç-taht için tartışma ve savaşlar kızışınca bu oilanın şöhreti de yavaş yavaş sönmeye başlamıştı. Babası Firuzbek, bir sefer sırasında habersizce kaybolmuştu.*

Bu parchaga e'tibor beradigan bo'lsak asliyat matnda "g'oyib bo'lmoq" birikmasi A.Botur tomonidan "terk-i dünya eylemiş" deb evfemizm shaklida o'girilgan bo'lib, uning o'zbekchaga tarjimasini "tarki dunyo qildi" ya'ni "o'ldi" tarzida berilgan. "Tarki dunyo qilmoq" ham evfemizmga bir misol bo'lsa-da, asliyat matndagi "g'oyib bo'lmoq" ya'ni "yo'qolmoq" shakliga to'g'ri kelmaydi. Ikkinchi tarjimon Shuayip Qoraqosh so'zma-so'z tarjima qilib, xuddi shu jumlani ya'ni "g'oyib bo'lmoq" birikmasini "kaybolmuş", "yo'qolgan" shaklida ag'dargan.

Evfemizm xalqlardagi urf-odat, madaniy saviyaning darajasi, estetik did va etnik me'yorlarning rivojlanishi bilan bog'liq. Tilning taraqqiyoti bilan uning evfemistik qatlami ham rivojlanadi. Yangicha axloq odob, yangicha dunyoqarash me'yorlari asosida evfemizmning yangi yangi shakllari yuzaga keladi. Tilda muayyan nutq vaziyati talabi bilan vujudga kelgan evfemizm ham mavjudki, ularning ma'nosi ko'pincha matn orqali oydinlashadi. Masalan, "Ra'noni egasiga topshirmagunimizcha, — dedi Nigor oyim, — quyilmaydiganga o'xshaydi" (A. Qodiriy) jumlasida nutq odobi nuqtai nazaridan "erga bermoq" iborasi o'rnida egasiga topshirmoq shaklidagi evfemizm qo'llangan. Evfemizm ilmiy va rasmiy uslublarda keng qo'llanadi⁵.

Shu kabi evfemizmni "Navoiy" romanida ham uchratishimiz mumkin. Masalan,

Asliyat: *Kampir unga qo'rqa-pisa qaradi: "Achchig'lanma, bek yigit, o'zi uyatchang qiz, yana boshi bog'liq...*

Ahsan Botur tarjimasini: *İhtiyar korkulu gözlerle ona bakıp: - Aldırma bey yigit, -dedi. - Çok utangaç bir kız. Sonra başı da bağlı ..*

Shuayip Qoraqosh tarjimasini: *Yaşlı kadın ona korkarak baktı : " Öfkelenme , bey yiğit, kendisi mahçup bir kız ...*

⁵ Shomaqsudov A., Rasulov I., Qo'ng'urov R., Rustamov H., O'zbek tili stilistikasi, T., 1983; Omonturdiyev A., O'zbek nutqining evfemik asoslari, T., 2000.

Yuqoridagi “boshi bog‘liq” iborasi o‘zbek tilida nutq odobi yuzasidan ayol kishi (qiz bola)ga nisbatan “unashtirilgan” ma’nosida ishlatiladi. Romanning 1-tarjimasida Ahsan Botur ushbu birikmani aynan tarjima orqali beradi (*başi da bağı*). Biroq, turk tilida ushbu birikma “unashtirilgan” ma’nosida ishlatilmaydi. Ikkinchi tarjimada esa (Sh.Qoraqosh) “boshi bog‘liq” birikmasi umuman tushurib qoldirilgan.

Disfemizmlar tasnifi. Disfema-denotatga sub’ektiv munosabatning manfiy tomonga ketishi bilan bog‘liq pragmatik hodisa bo‘lib, unga adabiy tilda o‘rin yo‘q deyishga asos yo‘q. Disfemik ma’noli birliklardan tinglovchida voqelik yoki shaxs haqida kuchaytirilgan salbiy taassurot qoldirish uchun foydalaniladi, biroq bu holat uni shu jihatdan o‘rganishga, tahlil va talqin etish, qolaversa, tasnif etishga asos yo‘qligini, maqsad noma’lum ekanligini, extiyoj sezilmasligini ko‘rsatmaydi. Muammo shundaki, haqiqatan ham disfemizm mutlaq alohida birliklar tizimi emas, bunday birliklarning disfemik qiymati nutqiy, u evfemizm bilan bir sistemada, shu bilan birga, unga qarama-qarshi zid vosita sifatida qaraladi⁶.

Disfemizm evfemizm bilan munosabatdosh bo‘lganligi sababli ularning tasnifida ham evfemizmlar tasnifidagi ayrim belgilar tayanch bo‘lib xizmat qiladi.

Disfemizmlarning semantik guruhlari doirasi ham asosan so‘kish, haqorat, qarg‘ish, kinoya, masxara tushunchalarini ifodalovchi birliklartsh o‘z ichiga oladi. Shulardan kelib chiqib, to‘plangan misollar asosida quyidagi qarg‘ish anglatuvchi disfemizmlar personajlar nutqida keltirilib, ularning xulq-atvori, kasb-kori, hayotiy tajribasi, ruhiyati, yoshi, ijtimoiy kelib chiqishi aniqlandi (*“Maryam ilk bor “haromi” degan so‘zni eshitganida besh yashar qizaloq edi.”*)⁷:

Disfemizmgga O.S.Axmanovning “Tilshunoslik atamaları lug‘ati”da qisqacha izoh berilgan. “Disfemizm (kakofemizm) isp. disfemismo. Trop. muayyan matndagi predmet, narsa xodisa nomini nisbatan qo‘pol, vulgar ifoda bilan almashtirish”.

Asliyat: - *Qaysi To‘g‘onbek, birodar? – elkasidan turtib so‘radi Sultonmurod.*

- *Yangi tug‘ilgan itlardan...*

Ahsan Botur tarjimasini: - *Hangi Doğanbey birader? – omuzumdan tutarak sert çıktı Sultan Murat.*

- *Yeni kiralanan itlerden!...*

Shuayip Qoraqosh tarjimasini: - *Hangi Doğanbey birader? – omuzumdan dürterek sordu Sultanmurad.*

- *Yeni doğan itlerden!...*

⁶ Qodirova. X. O‘zbek tilida evfemizm va disfemizm. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”. 2013, 52 b.

⁷ Kurbanov S.S., Saparova M.R. Badiiy asar jozibadorligini oshirishda qarg‘ish anglatuvchi disfemizmlarning personajlar nutqida berilishi.

O‘zbekcha matndagi “it” so‘zining o‘zi “badfe’l”, “badxulq” ma’nosini bergan. Bu so‘z bir qancha o‘rinda qo‘llanilgan (“itemgan, it, itbachcha, it-mushuk, itlanish” kabi) va haqorat sifatida namoyon bo‘lgan. Misolda esa “yangi tug‘ilgan itlardan” birikmasi ham “bu lavozimda (soliq yig‘uvchi) yangi badxulq, badfe’l kishilardan biri” degan ma’noda disfemik ma’noda kelgan.

Ahsan Botur ishlatgan “kiralanan itlerden” ya’ni, “yollangan itlardan” birikmasini o‘rinli qo‘llanilgan deyish mumkin. Sh.Qoraqosh birikmani so‘zma-so‘z “Yeni do‘gan itlerden!...” deb tarjima qilgan.

Asliyatdagi yana bir “It” disfemizmi qo‘llanilgan jumla uchraydi:

Asliyat: - *Behuda ovora bo‘lasiz, buvi, - dedi Dildor kuyunib. - It akilladi qo‘ydi-da.*

Ahsan Botur: - *Bo‘şa kendini yoruyorsun buvi, dedi Dildar kivançla. - Itin aklına esmiş işte...*

Shuayip Qoraqosh tarjimasini: - *Boşuna uğraşıyorsunuz nine! – dedi Dildar öfkelenerek. It öylesine söylemiş işte...*

Ma’lumki, o‘zbek tilida “aytdi qo‘ydi-da, kezi kelganda ayrdi-da” ma’nosidagi “It huradi, karvon o‘tadi” degan maqol bor. Muallif ushbu jumlaning yozayotganda ana shu maqolni ko‘zda tutgan. Buni tushunmagan ikki tarjimon esa jummalarni noto‘g‘ri tarjima qilgan. “It akilladi qo‘ydi-da” jumlasini turk tiliga “It ürer kervan geçer” shaklida tarjima qilinsa, o‘rinli qo‘llanilgan bo‘lar edi.

Disfemizmlar tasnifida xuddi evfemizmlar tasnifida bo‘lgani kabi bir qancha omillar tayanch bo‘ladi. Masalan,

Disfemik ma’noli birliklarning mavzuiy guruhlari. Bunda asosan so‘kish, haqorat, qarg‘ish, kinoya, masxara tushunchalarini ifodalovchi vositalar bilan chegaralanadi.

So‘kish va haqoratni ifodalovchi disfemik ifodalar. Mazkur disfemik ifodalarga misol tariqasida ayollarga nisbatan qo‘llaniladigan “Sochi uzun, aqli qisqa” iborasini misol tariqasida keltiradigan bo‘lsak, jumladagi “aqli qisqa” birikmasi disfemizm bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu birikma ahmoq, farosatsiz, o‘ylab gapirmaydigan ayollarga nisbatan ishlatiladi.

Qarg‘ish anglatuvchi disfemik ifodalar. Har qanday qarg‘ish so‘zlari disfemik kayfiyat uyg‘otadi. Masalan, “Harom qotsin, go‘rso‘xta, qaqshagur, uying kuysin, xumpar” kabilarni disfemizimga misol tariqasida keltirishimiz mumkin.

Masxara, kinoya anglatuvchi disfemik ifodalar. Masxara va kinoyaga oid disfemizmlar badiiy adabiyotda ko‘p uchraydi. Masalan, “qo‘tir itning bolasi” birikmasi, yoki bo‘lmasa “homilador” ifodasini asosan hayvonlarga nisbatan

ishlatiladigan “bo‘g‘oz” so‘zi hech qanday bo‘yoqdorlikka ega emas. Lekin, ayrim hollarda uning insonlarga nisbatan qo‘llanilishi disfemik mohiyat kasb etadi⁸.

O‘zbek tilida “*o‘lib turgan ekan*” birikmasi og‘zaki nutqda ko‘p qo‘llaniladi. (ustida sezdirmasa-da, “*ichida jon-jon deb turmoq*”) ma’nosida ishlatiladi. Mazkur iboradagi “o‘l” tushunchasidan foydalanilganining o‘ziyoq disfemik kinoyani yuzaga keltiradi.

Disfemizm tilshunoslikda A.N.Rezanova tomonidan leksik-semantik jihatdan quyidagicha tasnif qilinadi:

- O‘lim, kasallik, jismoniy va ma’naviy nuqsonlarni bildirib keluvchi disfemizmlar;
- Keng doiradagi jinoiy guruhlar bilan bog‘liq disfemizmlar;
- Inson nuqsonlari bilan bog‘liq disfemizmlar;
- Millatga mansub disfemik nomlar;
- Xudo, iblis (shayton), cherkov marosimlari bilan bog‘liq disfemizmlar.⁹

Endi “Navoiy” romanida uchraydigan disfemizmlarga misollar keltiramiz:

Asliyat: - *Shayton, otamiz Odamni ham aldagan emasmi? Orada shaytonlar yo‘qmi? – dedi ishontiradigan ohangda Shahobiddin.*

Ahsan Botur tarjimasi: *Şeytan Âdem babamızı dahi aldatmadı mı? Arada şeytanlar yok mu? - dedi inandırıcı bir âhenkte Şehâbeddin.*

Shuayip Qoraqosh tarjimasi: “*Şeytan, atamız Âdem'i de aldatmış değil mi? Arada şeytanlar yok mu?*” dedi inandırıcı bir sesle Şehabiddin.

Asliyatda insonga nisbatan ishlatilgan “shayton” so‘zi ma’no jihatdan “yo‘ldan ozdiruvchi, qabih ishlarga boshlovchi” kishilarga nisbatan qo‘llaniladigan disfemizmni kinoya shaklini yuzaga keltirmoqda. “*Orada shaytonlar yo‘qmi?*” disfemizmi ikki tarjimon tomonidan so‘zma-so‘z tarjima qilinib “*Arada şeytanlar yok mu?*” deb o‘girilgan va romandagi ma’noni to‘laqonli chiqarib bergan.

Xulosa qilinadigan bo‘lsa, evfemizmning paydo bo‘lishi insoniyat tafakkuri va axloqiy qadriyatlar rivoji bilan bog‘liq. Har ikki hodisa – ko‘chim, nutqiy jarayon mahsuli hisoblanadi. Ulardan ba’zilari lisoniy birlik bo‘lib, adabiy me’yor qatoridan o‘rin olgan.

Tadqiqotlarimizdan shuni aytishimiz mumkin-ki, hamma vaqt ham evfemizm va disfemizmlar asliyatda bo‘lgani kabi tarjimalarda hosil bo‘lavermaydi. Ba’zan esa

⁸ Qodirova. X. O‘zbek tilida evfemizm va disfemizm. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”. 2013, 52 b.

⁹ Резанова А.Н. Дисфемия в английском языке: семантические механизмы и прагматические функции. Автореф... канд. Филол. Наук. – Санкт – Петербург, 2008. – С. 20.

aksincha asliyatda soʻzlar orqali ifodalangan jumlar tarjimalarda evfemizm va disfemizmlarni keltirib chiqishi mumkin.

REFERENCES

1. Ҳамидов Х. Ўзбек қисса ва романлари турк тилида. Монография. – Тошкент: EFFECT-D нашриёти, 2022. – Б. 27.
2. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. –Тошкент: ЎзМЭ, 2002. -Б. 131.
3. Вандриес Ж. Язык. –М.: Гос. соц.-экон. изд-во, 1937. –С. 206; Булаховский Л.А. Введение в языковедение. –М.: УЧПЕДГИЗ, 1954. –С. 49; Арнольд И.В. Лексикология современного английского языка. –М.: Флинта, 2012. –С. 284; Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. –М.: Советская энциклопедия, 1966. –С. 521.
4. Usmonova Sh. Tarjimaning lingvomadaniy aspektlari. Oʻquv qoʻllanma. – Toshkent: 2015. – В. 43.
5. Shomaqsudov A., Rasulov I., Qoʻngʻurov R., Rustamov H., Oʻzbek tili stilistikasi, T., 1983; Omonturdiyev A., Oʻzbek nutqining evfemik asoslari, T., 2000.
6. Qodirova. X. Oʻzbek tilida evfemizm va disfemizm. Oʻquv-uslubiy qoʻllanma. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”. 2013, 52 b.
7. Kurbanov S.S., Saparova M.R. Badiiy asar jozibadorligini oshirishda qargʻish anglatuvchi disfemizmlarning personajlar nutqida berilishi.
8. Резанова А.Н. Дисфемия в английском языке: семантические механизмы и прагматические функции: Автореф... канд. Филол. Наук. – Санкт – Петербург, 2008. – С. 20.
9. Aybek. Nevâyi, Roman, Türkiye Türkçesine aktarma ve İnceleme Prof. Dr. Şuayip Karakaş. –İstanbul: Ötüken Yayınevi, 2019. – 461 s.
10. Aybek, M.T. Nevai, Çev. Ahsen Batur. – İstanbul: 1995.
11. Oybek, Navoiy, roman, / «Asr oshgan asarlar» turkumi // Tahrir hayʼati: Bobir Alimov va b. –Toshkent: «Sharq», 2004, – 496 b.